

## INTERNET VA UNING TA'LIMDAGI AHAMIYATI

To‘lanboyeva Gulsanamxon Azizjon qizi

Farg‘ona davlat universiteti, chet tillari fakulteti o‘qituvchisi

[gulsanamtulanboeva88@gmail.com](mailto:gulsanamtulanboeva88@gmail.com) +998910420141

ORCID ID 0009-0009-4094-5766

**Annotatsiya:** Internet, asosan, ma'lumotlar olish va kommunikatsiya qilish imkoniyatiga asoslangan internet bo'yicha global tarmoqni ifodalaydi. Internet orqali foydalanuvchilar ma'lumotlarga kirish, ularni o'qish va yozish, elektron pochta orqali xabar almashish, ijtimoiy tarmoqlarda do'stlar bilan aloqa o'rnatish, videomuhokama qilish, onlayn savollar berish va boshqa ko'plab amallarni bajarish imkoniyatiga ega bo'ladi.

**Kalit so'zlar.** Internet, muloqot, informativlik, kommunikativlik, onlayn platforma, onlayn ensiklopediya, onlayn ma'ruza, Coursera, Google scholar, Vikipediya

**Abstract:** The Internet represents a global network on the internet based primarily on data acquisition and communication capabilities. Through the Internet, users will be able to access data, read and write them, exchange emails, communicate with friends on social networks, make video calls, ask online questions and perform many other actions.

**Key words.** Internet, communication, informativeness, communication, online platform, online encyclopedia, online lecture, Coursera, Google scholar, Wikipedia

**Аннотация:** Интернет представляет собой глобальную сеть в Интернете, основанную в первую очередь на возможностях сбора данных и коммуникации. С помощью Интернета пользователи смогут получать доступ к данным, читать и записывать их, обмениваться электронными письмами, общаться с друзьями в социальных сетях, совершать видеозвонки, задавать онлайн-вопросы и выполнять множество других действий.

**Ключевые слова.** Интернет, общение, информативность, коммуникативность, онлайн-платформа, онлайн-энциклопедия, онлайн-лекция, Coursera, Google scholar, Википедия

Google Scholar ko'plab fanlar bo'yicha ilmiy adabiyotlarning to'liq matni yoki metama'lumotlarini indekslaydigan free-access ya'ni erkin kirish mumkin bo'lgan veb-qidiruv tizimi. Bu esa foydalanuvchilarga ilmiy ishlar, tezislar, kitoblar, konferensiya ishlarini qidirishga imkon beradi. Ushbu platforma izlanuvchilarga universitetlar, akademik noshirlar va tadqiqotchilarning millionlab maqolalariga kirish imkoniyatini beradi.<sup>1</sup> Bugungi kunda ma'lumotlar bazasi sifatida nafaqat bu platformadan ma'lumotlarga, olimlarning ilmiy ishlariga ega bo'lishda foydalanamiz, balki muntazam ravishda o'z ilmiy ishlarimiz, tadqiqotlarimiz natijalarini unga joylab boramiz.

Yana shunday platformalardan biri bu – Coursera. Coursera platformasi foydalanuvchiga butun dunyoning yetakchi universitetlari va turli xil kompaniyalarining o'quv kurslari, mutaxassisliklari va diplomlarini taklif qiluvchi onlayn ta'lim platformasi. Undagi kurslar turli xil: texnologiya, ijtimoiy-iqtisodiy fanlardan tortib san'at va gumanitar fanlarga

<sup>1</sup> <https://scholar.google.com/intl/en/scholar/about.html>

bo‘lgan turli xil fanlarni qamrab oladi.<sup>2</sup> Courseraning boshqa platformalardan yana bir farqli tomoni shundaki, undagi kurslar umumiy kurs yoki onlyan tyutorning imkoniyatlari va sharoitidan kelib chiqib o‘zgarmas qilib qo‘yilmagan, ya’ni ahamiyatli jihat shundaki kurs, kursning sillabusi foydalanuvchining imkoniyatlari jihatidan istalgan zamon va makon uchun moslashtirilishi mumkin. Coursera platformasidagi kurslar odatdagi moliyaviy piramida formulasiga bo‘ysunuvchi kurslardan o‘zining ishonchliligi, samaraliligi va tajribaliligi bilan tubdan farq qiladi. Sababi shundaki bu kurslarning mualliflari Google, IBM, Meta, Salesforce, Microsoft va CVS kabi yirik yetakchilardir, ularning ko‘p yillik tajriba va bilimlari ushbu o‘quv dasturlariga joylangan. Shu sababdan Coursera foydalanuvchilari boshqa onlyan o‘quv kursalriga nisbatan ancha samarali bilim olmoqda va yuqori marralarga erishmoqdalar. Courseradagi kurslar bo‘yicha reyting ishlab chiqilgan bo‘lib, ushbu reyting Coursera 4.7/5 yulduzga egalik qilayotgani va bitiruvchi o‘quvchilarning 73 foizi istiqbolli karyeralarini qurib ulgurganliklari haqida xabar beradi.<sup>3</sup> Uni quyidagi diagamma ko‘rinishida taqdim etaman:

4-ilova.

## Coursera foydalanuvchilarining muvaffaqiyat statistikasi



Muvaffaqiyatga erishmagan o‘quvchilar 27%
Muvaffaqiyatga erishgan o‘quvchilar 73%

Internetda bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lish uchun faqatgina onlayn platforma balki, onlayn kutubxonalar ham mavjud. Odatda, kitobxon kutubxonaga borsa ayrim kitoblardan, masalan ensiklopediyalardan faqatgina kutubxonaning o‘zidagina foydalanishga ruxsat beriladi, uyga yoki foydalanuvchi o‘zi bilan boshqa joyga olib ketishi mumkin emas. Ammo internetning yana bir afzalligi o‘laroq, u bizga istagan joyda va vaqtida foydalanish mumkin bo‘lgan juda keng qamrovli onlayn ensiklopediya - VIKIPEDIYAni taqdim etdi. Vikipediya - bu butun dunyo bo‘ylab ko‘ngillilar tomonidan yaratilgan va doimiy tahrirlanib turuvchi onlayn ensiklopediyadir. U Vikimedia fondi tomonidan joylashtirilgan va nazorat qilib turiladi. Vikipediyada ko‘plab mavzular bo‘yicha minglab maqolalar mavjud bo‘lib, ular vositasida qidirilgan ma’lumot tez va keng qamrovli holda foydalanuvchiga uzatiladi. Vikipediya bazasi kengligi va unga kirish qulayligi tufayli ko‘plab mavzular ustidagi tadqiqotlarning boshlang‘ich nuqtasidir.<sup>4</sup> Vikipediyaning yana bir alohida xususiyati, undagi ma’lumotlarni istagan ko‘ngilli, tahrirlab boyitishi yoki keraksiz qismini olib tashlashi mumkin. Bu kabi saytlar, platformalar, onlayn kutubxonalarini yana ko‘plab turlarini misol tariqasida keltirishimiz mumkin, yuqoridagilari bugungi eng foydalanuvchisi ko‘p, ma’lumot miqqosi keng va birmuncha ishonchlilari. Bular o‘z navbatida internetning informativlik xusuiyatini tashkil etib, bir qator afzalliklarini vujudga keltiradi va ular quyidagilar:

- Keng ko‘lamli axborotning mavjudligi. Internetni yuqorida ham ummonga muqoyasa qilganimizdek, ushbu ma’lumotlar ummonidan har kim o‘zi uchun kerakli yoki

<sup>2</sup> <https://about.coursera.org/>

<sup>3</sup> [https://about.coursera.org/press/wp-content/uploads/2020/10/Coursera\\_DriversOfQuality\\_Book\\_MCR-1126-V4-lr.pdf](https://about.coursera.org/press/wp-content/uploads/2020/10/Coursera_DriversOfQuality_Book_MCR-1126-V4-lr.pdf)

<sup>4</sup> <https://en.wikipedia.org/wiki/Wikipedia>

o‘zini qiizqtirgan ma’lumotni topishi, foydalanishi mumkin. Elektron maqolalar, kitoblar, ilmiy ishlar, ensiklopediyalar shular jumlasidan.

- Internetda eng so'nggi yangiliklar va dolzarb voqe-a-hodisalarining mavjudligi. Klassik gazeta, jurnal, ro'znomalr va kitoblar belgilangan bir muddatda chop etilgach, uni ma'lum vaqt o'tgandan keyin uni boyitib tahrirlashning imkoniyati yo'q. Lekin, internetda esa aksincha. Turli ijtimoiy tarmoqlar, saytlar, vebsaytlarda eng so'nggi yangiliklar juda tezkorlik bilan uzatib turiladi. Bundan tashqari dunyoda o'zining alohida mavqeyiga ega bo'lgan mashxur, ishonchli va tezkor saytlar ham mavjud. Masalan: BBC, CNN, REYTERS kabilar shular jumlasidan. Dunyoning istalgan burchagida sodir bo'lgan yangiliklardan boxabar bo'lish imkoniyati internetda uzlusiz mavjud.

- Maxsus ma'lumotlarning mavjudligi. To'g'ri, internetda doim ham tartibli, mazmunli biz istagan ma'lumot mavjud emas. Ammo, professional tarzda yaratilgan saytlar, misol uchun "LinkedIn"<sup>5</sup> kabi platformalarda ma'lumotlar tartibli, guruhlangan ko'rinishda bo'ladi va siz bu orqali o'z bilimlaringizni mustahkamlashingiz, yoki o'z navbatida siz yuklagan portfoliongiz boshqalar uchun samarali bilim va ko'nigmalar manbayi bo'lib xizmat qilishi mumkin. Shuni ta'kidlab o'tishim joizki, LinkedIn dunyodagi eng yirik professional tarmoq hisoblanadi va shunga ko'ra ushbu tarmoqda minglagan foydalanuvchilar har kuni o'zi istagan kasb, ish haqida malumot topish bilan birgalikda, dunyoning istalgan burchagidan bo'sh ish o'rni topib, turli xil kasbiy aloqalar o'rnatib, buning pirovardida o'z karerasini rivojlantirb mustahkamlaydilar.

- Tibbiyot va sog'liqni saqlash. Tibbiyot xodimlari – shifokorlar foydalana oladigan foydali retseptlar, davo muolajalari va salomatlik haqida qimmatli ma'lumotlar bor. Soha vakillari ushbu bilim va ko'nikmalar vositasida o'z bilim va salohiyatlarini yanada rivojlantirishi, onlayn muloqotlar vositasida chet ellik hamkasblari bilan aloqalar o'rnatib, salohiyatlarini yanada yuksaltirishlari mumkin. Ba'zida shunday holatlar bo'ladiki, shifokor tavsiyasisiz ayrim bemorlar ulardan o'zboshimchalik bilan foydalanadilar. Bunday hollarda bu retseptlar davo emas, balki aks ta'sir etishi mumkin. Shuning uchun bilim, tajriba va yo'riqnomalar tibbiyotda muhim ahamiyat kasb etadi, faqatgina ma'lumotning o'zi bilan ish bitmasligini ham e'tiborga olish lozim.

XULOSA

Shu va shu kabi omillar internetning ma'lumotlilik xususiyatini shakllantiradi. Yuqoridagilarga qo'shincha va kasbiy nuqtayi nazzardan kelib chiqib, internet, elektron kutubxonalar, platformalar zamonaviy dunyoda allaqachon ta'lim vakillarining eng yaqin yordamchilaridan biriga aylangan. Qaysi fan o'qituvchisi, qaysi ta'lim instituti: bog'cha, maktab, oily ta'limb bo'lishidan qat'i nazar har bir pedagog o'quvchilarining yoshi, darajasi, qiziqishlaridan kelib chiqib istalgan materialni tanlashi va uni darslariga tadbiq etishi mumkin. Bunga qo'shimcha ravishda xorijdagi hamkasblai bilan fikr va tajriba almashishi, yangicha metodlardan foydalanishi hamda o'z yutuqlarini o'rtoqlashishi mumkin. Ilmiy ishlar uchun ha juda katta resurs bazasi mavjud bo'lib o'zidan oldingi izlanuvchi, tadqiqotchilarning ilmiy ishlariga murojaat etish, va yangi yaratilayotgan ilmiy ishlar uchun zamin sifatida foydalanish mumkin.

<sup>5</sup> <https://www.linkedin.com/help/linkedin/answer/a548441/what-is-linkedin-and-how-can-i-use-it?lang=en>

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent, "O'zbekiston", 2022
2. Maxsudova M. Muloqot psixologiyasi. O'quv qo'llanma. — T.: «Turon-Iqbol»nashriyoti, 2006.— 119 b
3. Mirzayeva, D. (2019). The concept of "friendship" in uzbek and english linguistic culture. Мировая наука, (11 (32)), 29-32.
4. To'lanboyeva G.A. Tilning gender xususiyatlari tadqiqi. THEORETICAL ASPECTS IN THE FORMATION OF PEDAGOGICAL SCIENCES. International scientific-online conference
5. <https://scholar.google.com/intl/en/scholar/about.html>
6. <https://about.coursera.org/>
7. [https://about.coursera.org/press/wpcontent/uploads/2020/10/Coursera\\_DriversOfQuality\\_Book\\_MCR-1126-V4-1r.pdf](https://about.coursera.org/press/wpcontent/uploads/2020/10/Coursera_DriversOfQuality_Book_MCR-1126-V4-1r.pdf)